

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'QUVCHILARNING KITOBOXONLIKKA BO'LGAN QIZIQSHLARINI
OSHIRISHGA TA'SIR ETIVCHI OMILLAR

*Murodova Nargiza Baxtiyorovna
Xalqaro Nordik unversetiti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar va maktab kutubxonalarida o'tkaziladigan turli tadbirlarning roli tahlil qilinadi. Kitobxonlikni oshirishga qaratilgan tadbirlar, jumladan, kitobxonlar konferensiyalari, badiiy asar tahlillari, kitoblar muhokamalari va "Kitob haftaligi" kabi faoliyatlar, o'quvchilarni kitobga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga yordam beradi. Maqolada tadbirlarning o'quvchilarda axloqiy va estetik fazilatlarni shakllantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni, shuningdek, kutubxonachilar va o'qituvchilarning bu jarayondagi roli ko'rsatilgan. Tadbirlarni rejalashtirish va ularning mazmunini o'quvchilarning yosh va qiziqishlariga moslashtirish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, o'quvchilar, mакtab kutubxonasi, kitobxonlar konferensiyasi, badiiy asar tahlili, kitoblar muhokamasi, Kitob haftaligi, axloqiy fazilatlar, estetik did, mustaqil fikrlash, pedagogik faoliyat, o'qituvchi roli, kutubxonachi, o'quvchilarning qiziqishi, ta'lim-tarbiyaviy ishlar, mакtab tadbirlari, kutubxona fondi, darslik ko'rigi, adabiy kechalar.

Kirish

O'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirish bugungi ta'lif tizimida eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kitobxonlik faqatgina bilim olish manbai sifatida emas, balki dunyoqarashni shakllantirish, estetik va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida ham ahamiyatga ega. Shu sababli, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va ularning kitoblarga bo'lgan qiziqishini oshirishda pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar katta rol o'yaydi.

Kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun ta'lif muassasalari o'qituvchilari, ota-onalar va jamiyatning birgalidagi harakatlari zarur. Pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarga kitoblarni tanishtirishda yangi yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Shuningdek, kitob o'qishning foydasи, uning o'quvchilarni rivojlantirishdagi o'rni haqida tushunchalar berish ham zarur.

O'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirishda shart-sharoitlar, metodik usullar, o'quv dasturlari, o'qituvchining roli, shuningdek, kitoblarni tanlashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan omillarni chuqur o'rganish va tahlil qilish ta'lif tizimining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar ko'rib chiqiladi.

Maktab o'quvchilarining asosiy bog'langan ilm maskani mакtab kutubxonasi. Ushbu dargohga o'quvchilarni jlab qilish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Maktab kutubxonasida o'tkaziladigan ommaviy tadbir turlaridan yana biri kitobxonlar konferensiyasidir. Bu tadbir, asosan yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi. Barcha kitobxonlar konferensiyasining asosiy maqsadi ham o'quvchi-kitobxonlarning o'qigan kitoblarini chuqur tahlil qila olish qobiliyatini mustahkamlashdan iboratdir. Shu bilan bir qatorda bu tadbir o'quvchilarda kitobga nisbatan jiddiy munosabatni shakllantiradi, ularning asar yuzasidan jamoaviy fikrlarini qaror toptiradi.

Kitobxonlar konferensiyalari fan-texnika, madaniyat, san'atga oid ma'lum bir muammo, mavzu yoki biror-bir yozuvchining asariga bao'ishlab o'tkazilishi mumkin. Kutubxonachi va o'qituvchi

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

bu tadbirni o'tkazish uchun jiddiy tayyorgarlik ko'rishi lozim. Tayyorgarlik jarayonida o'quvchilar sinf rahbarlari bilan hamkorlikda ish olib boradilar. Maktab kutubxonachisi tashkilotchi rahbar sifatida barcha ishlarni: konferensiya mavzusi, muhokama qilinadigan savollarni bir-ikki oy oldin belgilab, rejalashtirilayotgan tadbir rejasini tuzib chiqadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'tkaziladigan konferensiyaning mavzusi dolzarb bo'lib, o'quvchilarning qiziqishlari va matabning ta'lim-tarbiyaviy vazifalariga mos bo'lishi kerak.

Maktabdagagi umumiy kitobxonlar konferensiyalaridan farqli tarzda kutubxonada ham o'quvchilar ishtirokida kitobxonlik muammolariga bao'ishlab maxsus kitobxonlar konferensiyalarini ham tashkl etish mumkn. Maktab kutubxonasi tomonidan o'tkaziladigan kitobxonlar konferensiyasi muammoli va hisobot tarzda bo'lishi mumkin. Kitobxonlik muammosiga bag'ishlangan konferensiyalarning mazmuni ijtimoiy-siyosiy voqealar, ilmiy va madaniy hayotdagi yangiliklarga bog'liq bo'ladi. Bunday konferensiyalar yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishlarini o'rganish asosida tashkil qilinadi. Bunda ularning kitobxonlik darajasi e'tiborga olinadi.

Hisobot konferensiyasini "Biz yil davomida qanday kitoblarni o'qidik" degan mavzuda o'tkazish mumkin. Kitobxonlar konferensiyalari maktab kutubxonasida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning eng murakkab turlaridan biridir. Shuning uchun kitobxonlar konferensiyalariga dolzarb mavzularni tanlab, uni jiddiy tayyorgarlik ko'rgandan so'ng o'tkazish talab etiladi.

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning yana bir shakli badiiy asar tahlili bo'lib, bunda dolzarb masalaga bag'ishlangan adabiyotlar haqida o'quvchilarga ma'lumot berishdan iboratdir. Tahlillar tavsiya hamda axborot xarakteriga ega bo'ladi. Badiiy asar tahlilini tayyorlashda o'quvchilarning yoshi, qiziqishi hisobga olinadi. Tahlil uchun adabiyotlar sonini belgilashda mavzuning kengligi, kutubxona fondidagi mavjud adabiyotlar hajmi, albatta, hisobga olinadi. Tahlil uchun 5tadan 12 tagacha adabiyot tanlanib, tadbir 20-25 daqiqaga mo'ljallanishi kerak. Badiiy adabiyotlar tahlili mustaqil, pedagogik ish shakli hisoblanib, ko'pincha kitob ko'rgazmalari oldidan adabiy kechalar, kitob muhokamalari kabi tadbirlar bilan birlashtirilishda amalga oshiriladi.

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kitoblar muhokamalari ham alohida o'rinni tutadi. Kitoblar muhokamasini V-IX hamda X-XI sinf o'quvchilari bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Kitoblar muhokamasi ko'pincha badiiy asarlar to'g'risidagi erkin munozara hisoblanadi. Bu tadbirlarning ijobiy tomoni shundaki, qiziqarli muhokama o'quvchining mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kitobga nisbatan intilishni kuchaytirib, o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshiradi, badiiy estetik didini boyitadi.

Kutubxonachi va o'qituvchi muhokamadan oldin muhokama qilinadigan kitobni hamkorlikda tanlaydi, muhokama mazmunini ochadigan savollarni tayyorlaydi. Kitobni tanlashda uning mafkuraviy, estetik, ta'lim-tarbiyaviy jihatlari va kitobxonlar guruhining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Kitoblar muhokamasi o'quvchini badiiy adabiyot haqida keng fikrlashga o'rgatadi, o'quvchilarni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga imkon tuo'diradi.

O'tkazilgan pedagogik kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda "Kitob haftaligi" o'tkazish ham yaxshi natijalar bermoqda. Haftalik kompleks tadbir bo'lib, bunda yangi yoki biror mavzuga oid kitob-ko'rik ko'rgazmalar tashkil etiladi, adabiyotlar tahlili o'tkaziladi. Yozuvchilar, shoirlar bilan uchrashuvlar va adabiy kechalar tashkil qilinishi ham mumkin. Bu tadbir hafta mobaynida o'tkaziladi va bu davrda maktabdagagi barcha ta'lim-tarbiyaviy ishlar shu tadbiriga qaratilgan bo'lib, uni bayram ruhida o'tkazish tavsiya etiladi.

Respublikamiz maktablari ilg'or ish tajribalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ommaviy tadbirlardan yana biri "Eng yaxshi foydalilanigan darsliklar ko'rige"ni o'tkazish kutilgan samaralarni berib kelmoqda. Bu tadbir matab kutubxonachisi, sinf rahbarlari hamkorligida

o'tkazilib, har bir sinf foydalanilgan darsliklar ko'rigini tashkil qiladi va g'oliblar aniqlanadi. Maktab ma'muriyati tomonidan ko'rikda o'olib chiqqan sinf o'quvchilari rag'batlantiriladi. Bu tadbir maktab kutubxonalarida o'quv fondlarini asrash, avaylash, bolalarda kitobga nisbatan hurmat va ehtiyyotkorlikni tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktab kutubxonasida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, ularning axloqiy-estetik sifatlarini qaror toptiradi. Tadbirlar o'quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, o'z millati, ajdodlari yaratgan madaniy-ma'rifiy boyliklar bilan faxrlanish hissini yyg'otdi. Tadbirlar muntazam ravishda, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, kutubxonachi va maktab o'qituvchilarining hamkorligida tashkil etilsagina o'z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sharifova, N. H. Kitobxonlik va ta'lism. - Toshkent: O'zbekistan, 2020. - 250 b.
2. Peskov, A. V., Kolesa, L. A. Kitobxonlik va pedagogika: Yangi yondashuvlar. - Moskva: "Pedagogika", 2018. - 300 b.
3. Husaynova, M. T. Kitobxonlikni rivojlantirishda pedagogik metodlar. - Pedagogika va ta'lism jurnali, 2021. - 45-50-b.
4. Jabbarova, D. S., Azimova, L. G. O'qish motivatsiyasini oshirish yo'llari. - Ta'lism va madaniyat jurnali, 2019. - 123-130-b.
5. Karimova, Z. X. O'quvchilar uchun kitobxonlikni rivojlantirishning zamonaviy metodlari [Elektron resurs]. - URL: <https://www.example.com/kitobxonlik-metodlari> (kirish sanasi: 15.11.2024).
6. Shukurova, N. A. Kitobxonlikning yoshlar o'rtasidagi rivojlanishiga ta'siri (PhD dissertatsiyasi). - Toshkent, 2022. - 180 b.
7. Turdiyev, S. R. Kitobxonlikni yoshlar orasida rivojlantirishning metodik jihatlari (avtoreferat). - Toshkent, 2021. - 60 b.